ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK:9.904 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2214

ILK O‘RTA ASRLAR SUG‘DDA BOZORLAR TARAQQIYOTI

A.Y.Xoliqulov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada ilk o‘rta asrlar davriga kelib Sug‘dda savdo ishlari, bozorlar faoliyati, ularning mintaqadagi va tashqi savdo aylanmasida tutgan o‘rni ayrim yozma manbalar va arxeologik qazishma ishlarining natijalari asosida tahlilga tortilgan. Ma’lumki, qadimdan iqtisodiy hayot rivojida bozorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif arxeologik topilmalar orasida qadimgi bozorlar o‘rni iqtisodiy hayot, savdo aloqalari, qadimgi ajdodlarimiz turmush tarzi, madaniy hayot, hunarmandchilik kabi qator sohalarga oid qimmatli ma’lumotlar berishi haqidagi mulohazalarini bayon etgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘d, ichki savdo aylanmasi, Panch, Syuan-Szyan, “Kitob al-ansob”, Abu Bakr Narshaxiy, “Buxoro tarixi”, yilnomalar, Poykent bozorlari, Tovar ayriboshlash, tanga pullar.

Развитие рынков в раннесредневековом Согде

Аннотация. В статье анализируется торговая и рыночная деятельность в Согде в раннем средневековье, их роль в региональном и внешнеторговом обороте по результатам некоторых письменных источников и археологических раскопок. Известно, что рынки играют важную роль в развитии экономической жизни с древних времен. Автор высказал мнение, что место древних рынков среди археологических находок дает ценную информацию о хозяйственной жизни, торговых отношениях, образе жизни наших древних предков, культурной жизни, ремеслах.

Ключевые слова: Согд, внутренний торговый оборот, Панч, Суан-Цзян, «Китаб ал-Ансаб», Абу Бакр Наршахи, «История Бухары», хроники, Пайкентские рынки, товарная биржа, монеты.

Development of markets in early medieval Sughd

Abstract. The article analyzes trade activities, market activities in Sughd in the early Middle Ages, their role in regional and foreign trade circulation based on the results of some written sources and archeological excavations. It is known that markets play an important role in the development of economic life since ancient times. The author expressed his opinion that the place of ancient markets among the archaeological finds provides valuable information about economic life, trade relations, lifestyle of our ancient ancestors, cultural life, handicrafts.

Key words: Sughd, internal trade circulation, Panch, Xuan-Jian, "Kitab al-Ansab", Abu Bakr Narshahi, "History of Bukhara", chronicles, Poykent markets, Commodity exchange, coins.

Ilk o‘rta asrlar davriga kelib nafaqat Sug‘dning, balki butun Markaziy Osiyoning qishloq va shaharlari taraqqiyotida tashqi va ichki savdo muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrga kelib shaharlar savdo va iqtisodiy hayot markazi bo‘libgina qolmay, hunarmandchilik rivojida ham muhim maskan bo‘lib xizmat qilgan. Buni bir talay yozma manbalar, shuningdek arxeologik materiallar ham tasdiqlaydi. Malumki, qadimdan iqtisodiy hayot rivojida bozorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug‘diy tilda *w’črn* /*vācərən*/ atamasi “bozor”ni anglatgan. “Bozor”, “savdo majmua” ma’nosini beradigan bu atama ayni davrga oid parfiyoniy manbalarda *vāžār*, forscha *vāzār* shaklida ham uchraydi [18;125]. “Bozor” atamasining mavjudligi uning mavjudligining isboti hisoblandi.

Asli forscha bo‘lgan “bozor” atamasi, sug‘diy manbalardagi ushbu atamadan farqli o‘laroq arabiy manbalarda *suk* “bozor”, *asvak* “bozorlar” ma’nosini ifodalab kelgan. Arabiy manbalardan faqatgina Istaxriy va Ibn Xavqal keltirgan manbalarda Sug‘ddagi bozorlar *majmua* va *majmuai azim* shaklida qayd etiladiki, ushbu so‘zlar “odamlar to‘planadigan joy” ma’nosini beradi [19;313]. Mazkur holat ham odamlar to‘planadigan yirik maydonlar – bozorlar ma’nosini anglatgan.

Ta’kidlash lozimki, sug‘diy *w’črn* atamasining sinonimi sifatida qayd etilgan *suk* “bozor”dan ko‘ra “ko‘cha” ma’nosini anglatib kelgan. Bu o‘sha davr tarixiy jarayonlariga ham to‘g‘ri keladi. Ilk o‘rta asrlarning keyingi davrlarida Samarqand raboti atrofida ko‘plab ko‘chalarda savdogarlar yashashgan va shu erda savdo bilan shug‘ullanishgan. Istaxriyning keltirishicha, Samarqand

shahristonida bozor bo‘lmagan. Balki shuning uchun ham arabiy manbalarda keltirilgan *suk* – “ko‘cha” ma’nosidagi so‘z zamirida “bozor” tushunilgandir. Istaxriyning keltirishicha, bozorlar Samarqand shahrining shimolidagi Kesh darvozasi atrofida to‘plagan. SHaharning ushbu qismida asosan hunarmandchilik ustaxonlari zich joylashgan bo‘lib, bu bozorlarning shakllanishiga sabab bo‘lganligi ehtimoli yuqori [19;317].

Bu fikrni V.V.Bartold ham qo‘llab-quvvatlagan holda Kesh atrofidagi bozor “Ros at-Toq” deb nomlanganligini va uning islomga qadar mavjud bo‘lganligini qo‘shimcha qiladi. Bu bozorning Samarqand shahrini mo‘g‘ullar davriga qadar eng gavjum joyi ekanligini ta’kidlaydi [5;136]. Bozor shaharni chetlab o‘tuvchi kanal bo‘yida joylashgan bo‘lib, O.I.Smirnovaga ko‘ra, uni tozalash va ta’mirlash ishlariga ketadigan mablag‘ bozordagi rastalardan olinadigan soliqlar hisobiga amalga oshirilgan [15;128].

Sug‘dda “bozor” ma’nosini anglatish uchun foydalanilgan “toq” qadim me’moriy atama bo‘lib, qiyshiq arkali devor bilan o‘ralgan, usti yopiq imoratga nisbatan qo‘llanilgan. Bu atama keyingi davrlarda ham ishlatilgan. Hatto hozirda ham Buxoroda “toqi sarrofon”, “toqi telpakfuro‘shon” kabi savdo inshootlar saqlanib qolgan. Shunday ekan bu kabi alohida mahsulotlarning sotilishi uchun mo‘ljallangan savdo inshoot Samarqand Kesh darvozasi hududida faoliyat olib borganligi tarixiy haqiqatga yaqin hisoblanadi.

Yana bir qadim tarixga ega ilk o‘rta asrlarning keyingi davrlarda keng ishlatilgan atama Avesto kitobida keltirilgan *čāvrusuk* atamasi bo‘lib, so‘zma-so‘z “to‘rtburchakli”, “to‘rtqirrali” kabi ma’nolarni anglatadi. Olimlarning fikricha, ushbu so‘z asosida forsiy tilda “bozor” ma’nosini anglatadigan “chorsu” yoki “chahorsu” atamasi shakllangan. Aslida bu atama bozor shaklini ifodalash uchun ishlatilgan bo‘lib, uni gidronim o‘laroq “chahorsuv”, ya’ni, “to‘rt suv”, “to‘rt ariq” kabi talqinlar o‘zini oqlamaydi va yanglishdir.

XX asrning 20-yillari davomida Afrosiyobda olib borilgan arxeologik tadqqiqotlar natijasida V.L.Vyatkin Arab xalifaligining Sug‘ddagi hukmronligining ilk davriga oid hammom va bozor o‘rnini ochib o‘rgangan. Bozorda o‘rni o‘rganilganda ko‘plab idishlarning qoldiqlari topilgan bo‘lib, bu bozorning idish bozori bo‘lganligidan dalolat beradi. Hammom yonidan bu kabi bozor o‘rnining topilishi uning idish bozori ekanligi to‘g‘risidagi fikrni kuchaytiradi. Bundan tashqari, Samarqandda bu davrda alohida mahsulotlar sotishga ixtisoslashgan ko‘chalar mavjud bo‘lgan va ular keyinchalik ayni hunarmandchilikka ixtisoslashgan mahallalarning vujudga kelishiga ham sabab bo‘lgan. “So‘zangaron”, “Ohangaron”, “Charmgaron” kabi Samarqanddagi mahallalar nomi keyingi davrga oid bo‘lsa-da, ularning shakllanish omillari yuqorida aytilgani kabi, dastlab kichik bir do‘kon atrofida birlashgan ko‘chalar va ularning kengayishi najasida vujudga kelganligi shubhasiz.

Ilk o‘rta asrlar Sug‘d markazi Samarqanddan farqli ravishda Buxoro shahristonida bozor mavjudligi to‘g‘risida Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida ma’lumot keltiriladi. Manbada ushbu bozorning nomi “Dari attoron” (atir-upa bozori) deb keltirilgan. Aftidan “Buxoro tarixi” asari bir necha bor tarjima qilingan. Asardagi Arab xalifaligidan keyingi davrdagi bozorlar to‘g‘risida keltirgan ma’lumotda Buxoroda ikkita darvoza bo‘lganligi va ulardan biri “Dari alaffuro‘shon”, ya’ni, “Beda sotuvchilar eshigi” shaklida taqlin etilgan [13;15]. Demak ma’lum bo‘ladiki, ilk o‘rta asr bozorlari asosan shahar darvozlarini atrofida tashkil etilgan bo‘lib, shahar darvozasi ayni bozor nomidan kelib chiqqan holda nomalangan. Bu holat shahar nomlarining kelib chiqishiga ham sabab bo‘lgan. Samarqand atrofidagi Jumabozor, Juma, Payshanba kabi bir qator joy nomlari keyingi davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bu joy nomi bozor nomidan kelib chiqqan.

Yuqorida keltirilganidek, bozorlar o‘tkaziladgan joylar ma’lum bo‘lib, ushbu o‘rinda yarmarkalar ayni qaerda o‘tkazilganligi ma’lum emas. Ya’ni, shaharning aynan qaysi joyida o‘tkazilganligi noma’lum. Buning o‘ziga xos sabablari bo‘lgan, albatta. Yarmarkalarning o‘tkazilishi ko‘proq bayramlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ibodatxona atrofida o‘tkazilgan bo‘lishi ehtimoli yuqori. Y.A.Boboevning Beruniyga suyanib keltirishicha, oyning uchinchi kunida *kashumin* bayrami o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu bayram munosabati bilan tashkil etilgan Kumijkat (Buxoro) atrofidagi bozor yarmarkasi o‘n ikki (12) kun davom etgan. So‘ngra esa Tavois qishlog‘idagi yarmarka oyning 15-chi sanasidan boshlanib, bir hafta, ya’ni, 22-chi sanaga qadar davom etgan hamda bu yarmarkalar davrida faoliyat ko‘rsatgan o‘ziga xos ko‘chma bozor doimiy xaridorlar bilan to‘lib turgan. Sug‘diy *masafug‘* oyining 15-chi sanasigacha davom etadigan bayram tadbirlari Sug‘dning Sharg‘ qishlog‘ida tashkil etilgan. Sharg‘dagi bayram va u erdagi bozor yarmarkasi bir hafta davom etgan. Tavois va Sharg‘

Sug‘dning yirik bozor yarmarkalariga ega qishloqlari bo‘lib, ularda o‘tkaziladigan bozorlarda nafaqat mahalliy savdogarlar, balki Choch va Farg‘ona kabi hududlardan ham savdogarlar kelishgan.

Arxeologik topilmalar orasida qadimgi bozorlar o‘rni iqtisodiy hayot, savdo aloqalari, qadimgi ajdodlarimiz turmush tarzi, madaniy hayot, hunarmandchilik kabi qator sohalarga oid qimmatli ma’lumotlar beradi. Masalan, ilk o‘rta asrlar Sug‘dning sharqiy hokimligi bo‘lgan Panjikentda olib borilgan qazishma ishlari natijasida shaharda ikkita yirik bozor bo‘lganligi aniqlangan. Ularning biri shahar markazida va ikkinchisi shahar kiraverishidagi bozor yonida bo‘lgan. Ichki savdo aylanmasida Sug‘dning boshqa hukmdorliklariga nisbatan Panchning ulushi katta bo‘lgan deb taxmin qilinadi. Bozorlar o‘ziga yarasha me’moriy loyiha asosida qurilgan bo‘lib, shahar aholisining kundalik ehtiyoji uchun xizmat qilgan. Bozorlar taraqqiyoti Sug‘dning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim asos hisoblangan. Bozorlar nafaqat savdo maskani bo‘lgan, balki hunarmandlarning ustaxonalari ham asosan bozorlardan joy olgan [8;65]. Bir so‘z bilan aytganda, bozorlar tarqqiyoti, ularning to‘kin-sochinligi hamma zamonlarda ham shaharlarga baho berilgan.

Tarixdan ma’lumki, o‘sha davrda sug‘diylar savdo sohasida yaxshigina vositachi bo‘lishgan. Shuningdek, ular Xitoy va Vizantiya, Eron va Hindistonga bevosita savdo ishlari bilan borganliklari bilan ham mashhurdirlar [1;110]. Ichki savdoning rivojlanishi, bozorlarda turli xil mahalliy va xorijiy mahsulotlarning to‘planib qolishi natijasida ichki ehtiyojdan ortib qolgan mahsulot va tovarlarni sotish rivojlangan. Bundan tashqari, Sug‘dda turli xil ixtisoslashgan mahsulotlar, ayniqsa, ipak matolar va qurol-aslaha kabilarning ishlab chiqarilganligi sohaning ham ichki, ham tashqi ravnaqida katta ahamiyat kasb etadi.

Sug‘dda ichki savdoning rivojlanganligi to‘g‘risida mintaqa va unga qo‘shni hududlardan topilgan ko‘plab numizmatik materiallar guvohlik beradi. Panjikent shahri xarobalari dovomida 2000ga yaqin tangalarning topilganligi va ularni kataloglashtirilganligi ushbu fikrni tasdiqlaydi [16;389]. Mazkur tangalarning katta qismi ayni Panjikent bozori qoldiqlari qazishmalarida topilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda tashqi savdo aloqalari rivojlanganligi bilan bir qatorda ichki savdo munosabatlari, jumladan, bozorlar va davriy yarmarkalarning gullab-yashnaganligidan dalolat beradi.

Arab xalifaligi bosqinidan keyingi davrdagi Sug‘d bozorlari tarixiga oid turli-tuman ma’lumotlar asosan arab-fors manbalari orqali ma’lum. Ungacha bo‘lgan ma’lumotlar, ayniqsa, ichki bozor xususiyatlari, savdo munosabatlarining shakllari to‘g‘risidagi xabarlar juda tarqoq, qariyb yo‘q hisobi. Shuning uchun ham arabiy, forsiy va qisman xitoy manbalaridagi ma’lumotlar hamda arxeologik materiallar muammoni o‘rganishda birlamchi manba sanaladi.

629 yilda Xitoydan Sug‘dga, jumladan, Samarqandga kelgan Syuan-Szyan o‘z xotiralarida shahar aholisining yarmi savdo ziroatchilik va yarmi savdo bilan shug‘ullanganli haqida ma’lumotlarni keltiradi [15;125]. Azaldan Sug‘diylar yaxshi savdogarlar bo‘lishgan. Savdo-sotiq, pul bilan bog‘liq munosabatlar xalq turmush tarziga, odat-marosimlariga ham singishib ketgan. Xitoy yilnomalarida keltirilishicha, Samarqandda yangi tug‘ilgan o‘g‘il bolaning tiliga asal surkab, qo‘liga yalim surtishgan. Bundan ko‘zlangan maqsad kelajakda uning tili shirin va pulni yaxshi ushlashi uchun bu odat amalga oshirilgan. Bola besh yoshga to‘lganda kitobdan ilm o‘rgatilgan va o‘n ikki yoshdan qo‘liga tanga-pul bog‘lab, savdoga qo‘yishgan [7;310].

Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam’oniy (1113-1166)ning “Kitob al-ansob” asarida keltirishicha, Samarqand shahrining Kesh darvozasidan janubda Registon maydoni hududida bir necha turdagi mahsulotlar sotiladigan rastalarni o‘zida birlashtirgan bozorlar majmui bo‘lgan. Bozorda turli tovarlar qatori non va non mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, temirchilik, zargarlik, to‘qimachilik mahsulotlari ham sotilgan. Ayniqsa, to‘qimachilik mahsulotlari uchun alohida usti yopiq timlar qurilganligini as-Sam’oniy guvohi bo‘lgan [10;95]. Darhaqiqat, Samarqandda ilk o‘rta asrlarda har bir mahsulotni alohida bozorda sotilganligi ma’lum. Buni shahar Afrosiyobda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham asoslaydi [9;164].

Shu kabi bozorlarning G‘arbiy Sug‘d – Buxoroda ham bo‘lganligi ma’lum. Shunday ma’lumotlardan biri Abu Bakr Narshaxiy (899-959)ning “Buxoro tarixi” asarida keltiriladi. Jumladan, asarning “Buxoro va unga qo‘shiladigan hududlar” nomli IV-bobida Buxoro yaqinidagi Tavois qishlog‘i haqida ma’lumot keltirilib, quyidagilar qayd etilgan: - “. ...Unda masjidi jome’ bor**,** u katta bir shahristonga ega**,** qadimgi vaqtlarda **(**har**)** kuz faslida u joyda o‘n kun bozor bo‘lar edi**.** U bozorda shunday rasm bor ediki**, (**boshqa bozorlardan surilib qolgan**)** har qanday nuqsonli qullar**,** chorva

mollari va boshqa aybli qoldiq narsalar bo‘lsa hammasi bu bozorda sotila berar va ularni qaytarib berishning hech iloj-imkoni bo‘lmas edi**;** na sotuvchi va na oluvchining hech bir sharti qabul qilinmas edi**.** Har yili **(**shu o‘n kunda**)** bu bozorga masalan**,** Farg‘ona**,** Choch va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o‘n mingdan ortiq kishi hozir bo‘lishar va ko‘p manfaat topib qaytar edilar**.** Shu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edilar va boyliklari dehqonchilik tufayli emas edi” [13;10].

“Hudud ul-olam” asari muallifi (to‘liq nomi “Hudud-ul-olam mina-l – Mashriq ila-l – Mag‘rib” bo‘lgan “Hudud-ul-olam”ning muallifi aniq ma’lum emas, lekin tarixchilar uni Ibn Farig‘unga nisbat berishadi) ham Tavois bozorlarini ta’rifini keltirib, u erda yiligi ikki marta bozor bo‘lganligi keltiradi [17;12].

Bundan ma’lum bo‘ladiki, bozor jamiyatning barcha ehtiyojlarini qamrab olgan va Farg‘ona, Choch kabi hududlardan kelgan savdogarlar bilan hamkorlikda ish olib borilgan. Masalaning qiziq tomoni shundaki, ushbu bozor hozirgi kunda ham mavjud va ulgurji savdo ishlari olib boriladi.

Bozorlarning rivojlanishi o‘z navbatida savdogarlarning hamkorlikdagi aloqalariga turktki bo‘lgan. Xitoy yilnomalarida ushbu ma’lumotlarni mohiyatan to‘ldirib, boyitadigan ma’lumotlar mavjud. Xususan, yilnomalarda An (Buxoro), Kan (Samarqand), Mi (Maymurg‘), Shi (Kesh) va boshqa bir qator “Xu o‘lkalari mamlakatlari”dan Xitoyga borib, bu mamlakatdagi bir necha shaharlarda o‘z savdo koloniyalarini barpo etganligi va unga qo‘shni hududlarga borganliklari haqidagi qaydlar uchraydi [2;341]. Ulardan ma’lum bo‘lishicha, mazkur “Xu mamlakatlari”, ya’ni, buxorolik, samarqandlik, maymurg‘lik va keshlik savdogarlar hamkorlikda faoliyat yuritishgan. Bir so‘z bilan aytganda ilk o‘rta asrlar “Sug‘d savdogarlar ittifoqi” bo‘lib, bu ittifoqning mavjudligi to‘g‘risida soha olimlari tomonidan e’tirof etilgan [11;54].

639 yilda Chinonchkatda tuzilgan sug‘diy hujjatda keltirilgan oldi-sottida ishtirok etib, hujjat tuzilishida guvohlik qilgan sug‘diy etnos vakillar – maymurg‘lik, samarqandlik, kushoniyalik shaxslar nomi birgalikda qayd etilganligi ham ularning Sug‘ddan tashqarida hamkorlik qilganliklari hamda “Sug‘diy savdogarlar ittifoqi” to‘g‘risidagi fikrni kuchaytiradi.

Sug‘dda shaharlar bilan birga qator hokimlik markazlarida ham doimiy bozorlar bo‘lgan. Masalan, Sug‘dning Panch hokimligi bozorlarida birining o‘rni o‘rganilganda u erda ham bozor aniq me’moriy loyiha asosida qurilib, har bir mahsulot uchun alohida rasta bo‘lganligi aniqlangan [14’68]. Vardona qishlog‘i tafsilotlarini keltirilgan Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida “*. ...U joyda har haftada bir kun bozor bo‘lib savdogarl ar ko‘p kelar edilar. U erdan chiqadigan narsa ham yaxshi xil “zandaniychi” bo‘lgan*” [13;11] mazmunidagi fikr ham keltirilgan bo‘lib, bu holat kichik qishloqlardan ham haftaning muayyan kunlari bozorlar bo‘lganligi va har bir hududning o‘ziga xos mahsuloti bo‘lganligi to‘g‘risidagi fikrning ilgari surilganligi ko‘rish mumkin.

Sug‘d shaharlaridagi bozorlar o‘zining noz-ne’matlar va kundalik mahsulotlariga boyligi bilan qo‘shni hududlardan farqlangan. Sug‘diylar o‘z bozorlarini qo‘shni hududlarda, hatto Turfon vohasida ham tashkil qilganliklari manbalar orqali ma’lum. “Tan-shu” yilnomasida keltirilishicha, Turfonda ikkinta yirik bozor bo‘lib, ular “g‘arbiy” va “sharqiy” deb nomlangan. Shahardagi “G‘arbiy bozor” G‘arbdan kelgan sug‘diylar nazorati ostida bo‘lgan [15;125].

Sug‘ddagi bozorlar orasida Samarqanddan keyin Poykent bozorlari mashhur bo‘lib, bu shaharda savdogarlar boshqa hududlarga nisbatan anchayin keng qamrovli savdo ishlarini olib borishgan. Poykent savdogarlari nafaqat ichki savdo aloqalarida faol bo‘lishgan. Ular Xitoyga doimiy savdo aloqalarida bo‘lishgan. V.V.Bartoldning keltirishicha, hatto Poykent savdogarlari dengiz savdosi (Kaspiybo‘yi hududlari bilan) bilan shug‘ullanishgan. Buxoroning har bir qishlog‘i Poykent rabotlarida o‘zining kichik bozorchasiga yoki savdo shaxobchasiga ega bo‘lgan va bu bozorlarning umumiy soni mingdan ortiq bo‘lgan [5;169]. Shuning uchun ham o‘rta asr manbalarida Poykent “savdogarlar shahri” deya e’tirof etilgan.

Sug‘d ichki bozorida turli tuman mahsulotlari sotilganligi qatorida bozorlardagi savdoning muayyan soha tomonidan nazorat qilganligi ham ma’lum bo‘ladi. Ayniqsa, bozordagi tosh-tarozi masalalariga jiddiy e’tibor berilgan. Panjikent qazishmalari chog‘ida ko‘plab hajmi bitilgan tosh tarizilarning topilganligi ham bunga isbot bo‘lishi mumkin. Shuningdek, alohida idishlarda ham ularning hajmi yozilgan holda topilishi [6;111] har tomonlama bozordagi narx-navo va tosh-tarozi ham nazorat qilinganligini bildiradi. Soha mutaxassislari B.Marshak va V.Raspopova ushbu masalaga alohida to‘xtalib, Panjikentdan topilgan tarozi toshlarini talqin qilishgan [13;108]. Ularda

mahsulotning hajmi va uning sifatlari keltirilganligi alohida ahamiyatlidir. Masalan, VIII asrga oid qadoqtosh, tarozi toshini V.A.Livshits: - "*462 (draxm)" va "uch marotaba (?) to'rttadan kam qoladi" yoki "uch botmon (o'lchov birligi) to'rttadan kam qoladi*" deya talqin etadi [13;7]. Bu holat Sug'ddagi iqtisodiy hayot me'yorlaridan dalolat berib, har bir mahsulotning o'z narxi va hajmi bo'lganligidan dalolat beradi.

Xullas, shaharlar va qishloq o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivoji, turkiylar va sug'diylar o'rtasidagi savdoning taraqqiyoti bu davrda endilikda mahsulot ko'rinishdagi savdodan tanga-pul bilan qizg'in savdo o'tilganligi hamda ushbu savdoning huquqiy va iqtisodiy qonuniyatlar asosida nazorat qilinganligi, bozorlardagi o'lchov birliklari, narx-navoning barqarorligiga alohida e'tibor berilganligi bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida jamiyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashganligini va shu asosda davlat ravnaqi hamda madaniy uyg'onishni vujudga keltirgan omil bo'lganligini hisobga olish lozim.

Adabiyotlar

1. Humbach H. Die Soghdischen inschriftenfunde vom oberen Indus (Pakistan) // Algemeine und vergleichende Archaologie – Beitrage. Bd 2. – Munchen: 1980. – P. 201-228.
2. Mori M. Soğdlularin Orta Asya'daki Faaliyetleri. TTK, Belleten, Ocak, – Ankara, 1983.
3. Vaissière de la E. Sogdian traders: a history. Translated by J. Ward. (Handbook of Oriental studies = Handbuch der Orientalistik. Section eight, Central Asia; V. 10). – Brill, Leiden - Boston, 2005.
4. Yoshida, Yutaka & T. Moriyasu. A Sogdian sale contract of a female slave from the period of the Gaochang kingdom under the rule of Qu clan" [in Japanese] / Studies on the Inner Asian Languages, IV. 1988. – P. 1-50.
5. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Соч. – Москва: ИВЛ, – Том И. 1963.
6. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии.
7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. // Т. I. М.-Л.: 1950.
8. G'oyibov B. Sug'd konfederatsiyasida Panchning o'rni (ilk o'rta asrlar). ... – Б. 81; Распопова В.И. Один из базаров Пенджикента // СНВ. – М., 1971. Вып. X. – С. 67-75; Анарбаев А. Благоустройство средневекового города (V-начало XIII вв.).
9. Эрназарова Т.С. Денежное обращение Самарканда по археолого-нумизматическим данным (до начало IX в.) // Афрасиаб. Сборник. Выпуск 3. – Ташкент: 1974
10. Камалиддинов Ш.С. "Китаб ал-Ансаб" Абу Саъда Абдулкарима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 94-95.
11. Малявкин А.Г. Согдийский торговый союз / Информационный бюллетен международной ассоциации по изучению култур Централной Азии. Выпуск 15. – Москва: Наука, 1988. – С. 53-54.
12. Маршак Б.И., Распопова В.И. Согдийские гири из Пенджикента / Материалы Пенджикентской археологической экспедиции. Вып. IX. // СПб: Издателство Государственного Эрмитажа. 2005. – 108 с.
13. Narshaxiy Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far. Buxoro tarixi / fors tilidan A. Rasulov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1966. – B. 10.
14. Распопова В.И. Один из базаров Пенджикента // СНВ. – М., 1971. Вып. X. – С. 67-69.
15. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... – С. 125.
16. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – Москва: Наука, 1981. – 389 с.
17. Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi) / Fors tilidan tarjima, so'z boshi, izohlar va joy nomlari ko'rsatkichi muallifi Omonullo Bo'riev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 12.
18. Gharib B. Sogdian Distionary. Sogdian-Persian-English. – Teheran: Farhangan Publications, 1995, XXLII. – P. 397. (№ 9796).
19. Abu Iskhak Ibrahim ibn Muhammad al-Istaxri. Opus geographicum. Ed. M.J. De Goeje. BGA. – P. 313.